

**“Arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik” yo‘nalishidagi ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida dolzarb muammolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan
MAQSADLI DASTURI**

1. Resikllangan beton to‘ldiruvchilari asosida yangi avlod devor bloklarini ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: farg‘ona viloyatidagi beton va temir-beton buyumlari ishlab chiqarish hamda buzish-demontaj ishlari natijasida yiliga hosil bo‘ladigan 400–450 ming tonna beton chiqindilarining tarkibi, mustahkamligi, ifloslanganlik darajasi, donadorlik tarkibi va ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanish imkoniyatlari kompleks o‘rganiladi. beton chiqindilarini yig‘ish, saralash, metall va begona aralashmalardan tozalash, maydalash hamda belgilangan fraksiyalarga ajratish orqali yirik va mayda resikllangan beton to‘ldiruvchilarini olishning resurs tejankor texnologik sxemasi ishlab chiqiladi. To‘ldiruvchilarning suv shimuvchanligi, uyma zichligi, maydalanish ko‘rsatkichi, sovuqqa chidamliligi va sement qorishmasi bilan adgeziyasi aniqlanadi; resikllangan to‘ldiruvchilar, sementli bog‘lovchi, tabiiy mayda to‘ldiruvchi, mineral qo‘shimcha va kimyoviy modifikatorlardan iborat xomashyo aralashmasining optimal granulometrik tarkibi hamda retsepturasi matematik rejalashtirish va tajriba sinovlari asosida aniqlanadi; aralashmani tayyorlash, vibropresslash, qolipdan chiqarish va me‘yoriy sharoitda qotirish bosqichlarini qamrab oluvchi yangi avlod devor bloklarini ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqiladi. Mahsulotning geometrik aniqligi, o‘rtacha zichligi, siqilishdagi mustahkamligi, issiqlik o‘tkazuvchanligi, suv shimuvchanligi va sovuqqa chidamliligi amaldagi O‘z DSt va GOST talablariga muvofiq baholanadi; ishlab chiqilgan texnologiya bo‘yicha tabiiy tosh va qumga bo‘lgan ehtiyoj 60–70 foizgacha, devor bloklari ishlab chiqarish tannarxi esa 30 foizgacha kamaytiriladi. Bir dona blokning tannarxi an‘anaviy usuldagi 3 000 so‘mdan 2 100 so‘mgacha pasaytiriladi va 1 million dona mahsulot ishlab chiqarilganda yiliga 900 million so‘m iqtisodiy samara olinadi; laboratoriya va tajriba-sanoat sinovlari yakunida yangi devor bloklarining tarkibi, texnologik reglamenti, texnik shartlari, ishlab chiqarish yo‘riqnomasi, sifat nazorati xaritasi va texnik-iqtisodiy asoslari ishlab chiqiladi. 500 million so‘mlik ishlab chiqarish uchastkasini tashkil etish, 6–7 oyda investitsiyani qoplash hamda 10–15 ta doimiy ish o‘rni yaratish imkoniyati asoslanadi; texnologiyani joriy etish natijasida beton chiqindilarining poligonlarga tashilishi va ekologik yuklama kamaytiriladi, tabiiy inert materiallar zaxiralari tejaladi hamda raqobatbardosh, mustahkamligi va issiqlik izolyatsion xossalari yuqori bo‘lgan devor bloklari ishlab chiqariladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Ishlab chiqilgan tarkib va texnologiya Farg‘ona viloyatidagi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalardan birining tajriba-sanoat uchastkasida sinovdan o‘tkaziladi. Tayyor bloklarning fizik-mexanik va issiqlik-texnik ko‘rsatkichlari akkreditatsiyadan o‘tgan laboratoriyada aniqlanadi, tajriba namunalari bino devorining pilot uchastkasida qo‘llanadi hamda mahsulotdan amaliy foydalanish mumkinligi to‘g‘risida “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi va tegishli vakolatli tashkilot xulosasi olinadi.
--	--

		Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o'quv qo'llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va Web of Science/Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar beton va temir-beton chiqindilarini yetkazib beruvchi tashkilot, tajriba-sanoat sinovlarini o'tkazuvchi qurilish materiallari korxonasi hamda "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasining qo'llab-quvvatlash xatlari mavjud bo'lganida qabul qilinadi.
--	--	--